

**F.U.QODIROVA, M.A.UMARALIYEVA,  
SH.MATUPAYEVA, M.D.OMONOVA**

**INKLYUZIV VA KORREKSION  
TA'LIMDA CLIL TEXNOLOGIYASI**

**CLIL**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**F.U.QODIROVA, M.A.UMARALIYEVA,  
SH.Z.MATUPAYEVA, M.D.OMONOVA**

**INKLYUZIV VA KORREKSION  
TA'LIMDA CLIL TEXNOLOGIYASI**

*O'quv qo'llanma*

Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

UO'K 37.02;376

KBK 74.3

Q-34

F.U.QODIROVA, M.A.UMARALIYEVA, SH.Z.MATUPAYEVA,  
M.D.OMONOVA. INKLYUZIV VA KORREKSION TA'LIMDA CLIL  
TEKNOLOGIYASI. O'quv qo'llanma. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 146 b.

#### Taqrizchilar:

**E.M.Xudaynazarov** - *p.f.f.d. (PhD), dotsent;*

**F.I.Ochilov** - *p.f.f.d. (PhD), dotsent.*

Mazkur o'quv qo'llanma oliy pedagogik ta'lim jarayonida surdopedagogika ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan "Inklyuziv va korreksion ta'limda CLIL texnologiyasi" yangi fanini o'qitishning nazariy, didaktik va amaliy asoslari yoritilgan. O'quv qo'llanmada o'qitishning kredit-modulli tizimi talablari va o'quv materiallarini tayyorlashning xalqaro qoidalariga asoslanilgan. O'quv qo'llanmadan amaliy faoliyatdagi, o'qituvchilar, pedagog xodimlar, murabbiylar va ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchilar ham foydalanishi mumkin.

UO'K 37.02;376

KBK 74.3

ISBN 978-9910-9398-5-3



#### Kirish

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi (Xoldorova, 2018) Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: -O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; -O'quvchi-talabaning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi; -Pedagog va O'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) - mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish innovatsion yondashuvi bo'lib, mavzuga oid m'lumotni va chet tillarni darsda bir xil o'rgatish uchun bu o'qitish yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarda chet til vositasida boshqa umumta'lim fanlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otish yoki kuchaytirish imkoni vujudga keladi. Jumladan, geografiya va amaliy fanlar, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari yo'nalishlarini

integratsiyalashgan holda o'qitishni STEAM/STEM ta'lim yondashuvi asosida tashkil qilish tavsiya etiladi. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

## 1-MAVZU: XORIJIIY TILLARNI O'RGANISH BO'YICHA HUQUQIIY ME'YORIIY ASOSLAR

### Reja:

1. Xorijiy tillarni samarali o'qitish tizimining joriy etilishi.
2. Xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha me'yoriy hujjatlar tasnifi.

**Tayanch tushunchalar:** *xorijiy til, zamonaviy yondashuv, taraqqiyot strategiyasi, darslik, xalqaro test, o'quv qo'llanma, qaror, farmon.*

Jahonda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi sharti va jahon hamjamiyati rivojining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini zamonaviy yondashuvlar asosida oshirish juda dolzarb ahamiyat kasb etib, uni amalga oshirish mexanizmlari ta'lim jarayoniga tadbiriq etilgan. Kadrlar tayyorlash jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida xalqaro standartlar darajasida tashkil etish, ta'lim mazmuni sifatini tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan hamohangligini ta'minlash hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda chet tillarni o'rganishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash asosida kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri xorijiy tillarni o'qitish orqali yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va ma'naviyat, qadimiy va boy merosimizga iftixor tuyg'usi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir.

Jahon ta'lim tizimidagi tub islohotlar talabalarning chet tillarni mukammal o'rganishlari, barcha sohalarida ingliz tilini bilgan holda o'zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki davridan

boshlab chet tillarini o'qitishni yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalarga asoslangan malakali mutaxassislarni tayyorlash, sohaga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini hamda innovasion ta'lim usullarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Olib borilgan islohotlar natijasida uzluksiz ta'limda chet tillarni samarali o'qitish tizimi joriy etildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda ingliz tilini samarali va tizimli o'qitish sifatini oshirish zarurati mavjud. 2013-2014-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda 1875 - son "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tillari sifatida ingliz tili, nemis tili va fransuz tillari birinchi sinfdan o'qitila boshladi. Mazkur qaror umumta'lim maktablarida chet tillarini o'qitish tizimini tubdan o'zgartirdi va shu qaror asosida darsliklar yangilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida "2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish"<sup>1</sup> masalasi belgilanib, bu borada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda 1875 son "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 aprelda 2909 son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19-yanvardagi 34- son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorda jumladan quyidagilar belgilab berilgan:

Moliya vazirligi 2023-yildan boshlab har yili Agentlikning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq Davlat budjeti parametrlarida Jamg'arma mablag'larini shakllantirish uchun zarur mablag'larni nazarda tutsin.

Belgilansinki, Jamg'armaga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish yondashuvikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish;

xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish;

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish;

xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish;

fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish;

Agentlik Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda:

malakali mutaxassislarni jalb etgan holda 2022-yil 1-martdan boshlab chet tili fani o'qituvchilarining tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda sertifikatga ega bo'lishlariga